

Bozorova Xilola Uralovna

Termiz davlat universiteti talabasi

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada moliyaviy tizimning zamonaviy holati, uning iqtisodiyotni rivojlantirishdagi oʻrni hamda bank sohasida amalga oshirilayotgan islohotlarning mazmun-mohiyati tahlil qilinadi. Bank tizimini liberallashtirish, raqobat muhitini kengaytirish, moliyaviy barqarorlikni taʼminlash boʻyicha olib borilayotgan chora-tadbirlar yoritilgan. Shuningdek, bank xizmatlari sifati va qamrovini oshirish, xalqaro standartlarga moslashish yoʻnalishidagi islohotlarning samaradorligi koʻrib chiqiladi. Maqola yakunida Oʻzbekistonda moliyaviy tizimni yanada takomillashtirish boʻyicha taklif va tavsiyalar berilgan.

ANNOTATION

This article analyzes the current state of the financial system, its role in economic development, and the essence of reforms being carried out in the banking sector. It highlights the measures taken to liberalize the banking system, expand competition, and ensure financial stability. The article also examines the effectiveness of reforms aimed at improving the quality and coverage of banking services and aligning with international standards. In conclusion, the article provides proposals and recommendations for further improvement of the financial system in Uzbekistan.

Kalit soʻzlar: moliya, subsidiya, subvensiya, dotatsiya, rentabellik, likvidlik, sanatsiya, moliyaviy sanksiya, pul-kredit siyosati, preferensiyalar, inflyatsiya, moliya tizimi, aktivlar, bank-moliya tizimi.

Keywords: finance, subsidy, subvention, grant, profitability, liquidity, sanitation (financial recovery), financial sanction, monetary policy, preferences, inflation, financial system, assets, banking-financial system.

Davlat moliya tizimi, uning tarkibi va tuzilishi

Moliya tizimi — iqtisodiyot pul sektorining bir qismi, moliya amaliyoti. Moliya tizimi faqat moliya munosabatlarini emas, balki moliyaga taalluqli siyosiy, tashkiliy munosabatlarni ham qamrab oladi. Bu tizim tarkibiga quyidagilar kiradi: a) moliya obyektini hosil etuvchi pul fondlari yoki moliya resurslari; b) korxonalar, xonadonlar, davlat idoralari va nodavlat tashkilotlaridan iborat moliya munosabatlarining subyektlari — ishtirokchilari; v) moliya mexanizmi, yaʼni moliya munosabatlarida qoʻllaniladigan va pul bilan bogʻliq vositalar (foyda, zarar, rentabellik, likvidlik, byudjet, byudjetdan tashkari fondlar, subsidiya, subvensiya, dotatsiya, sanatsiya, moliya normativlari, moliyaviy sanksiya va boshqalar); g) moliya institutlari va davlatning moliya idoralari (moliya kompaniyalari, moliya jamgʻarmalari, moliya vazirligi, uning mahalliy boʻlinmalari, soliq idoralari, gʻaznachilik xizmati, soliq politsiyasi va boshqalar); d) moliya bozori — fond bozori, sugʻurta xizmati bozori, valyuta bozori; e) moliya siyosati — iqtisodiyot subyektlarining moliyaga oid yoʻl-yoʻriqlari va xatti-harakati.

Moliya siyosati, byudjet siyosati — davlat umumiy iqtisodiy siyosatining muhim tarkibiy qismi; davlat faoliyatini taʼminlash, mamlakat farovonligini oshirish maqsadlarida moliya tizimini tashkil etish, moliyaviy resurslarni safarbar etish va ulardan foydalanish, davlat oldida turgan ichki va tashqi siyosat vazifalarini bajarish buyicha amalga oshiriladigan barcha davlat tabirlarini oʻz ichiga oladi.

Moliya siyosati ta'sir ko'rsatadigan asosiy ob'yektlar — aholining turli katamlari, davlat institutlari (tashkilotlari), sanoat va xo'jalikning b. sohalari, mintakalar va mamlakatlarning umumiy hududi. Moliya siyosatining asosiy quroli va tarkibiy qismi — davlat byudjeti daromadlari va harajatlari, zayomlari, soliq imtiyozlaridir. Davlat tomonidan tanlagan iqtisodiy siyosatga va maqsadlarga qarab ayrim bandlar bo'yicha xarajatlarni ko'paytirish yoki kamaytirish orqali mamlakat hayotining u yoki bu tomonlariga, davlat institutlariga, iqtisodiyot tarmoqlariga, mas, harbiy harajatlarni yoki ilmiy texnik taraqqiyot uchun xarajatlarni ko'paytirib yoki kamaytirib, faol ta'sir etish mumkin. Davlat daromadlar, ularning miqdori, soliklar tizimi orqali iqtisodiy o'sish sur'atiga, aholi farovonligiga ta'sir ko'rsatishi, inflyasiya jarayonlarini va hokazoni boshqarishi mumkin.

Doimiy daromadlardan olinadigan moliyaviy resurslar yetishmagan hollarda qarzlarni qo'llanadi, ularning hajmi va ularga xizmat ko'rsatish tartibi ham iqtisodiyot holatiga ta'sir ko'rsatadi. Soliq imtiyozlari Moliya siyosatining muhim usullaridan biri hisoblanadi, ularning yordami bilan davlat iqtisodiyotning muhim tarmoqlari taraqqiyotini tezlashtirishi, aholining ayrim qatlamlari yoki toifalarining daromadiga bilvosita ta'sir etishi mumkin. Imtiyozlar va soliq solish bo'yicha preferensiyalar keyingi o'n yilliklarda taraqqiy etgan mamlakatlar iqtisodiyotida ayniqsa keng rivojlanmoqda. Moliya siyosati pul-kredit siyosati bilan qo'shib ketadi va o'z tadbirlarini o'tkazishda uning usullaridan foydalanadi. Moliya siyosatining muhim tomoni shundaki, bu siyosat odatda hukumat va uning qarorlarini tasdiqlaydigan davlat organlarining bevosita tasarrufida va boshqaruvida bo'ladi, pul-kredit tadbirlari bilan pul hukmdorlari — Markaziy bank tipidagi korxonalar shug'ullanadi. Makrodarajada Moliya siyosati davlat siyosati, mikrodarajada korxonalar, tashkilotlar va xonadonlar Moliya siyosatidan iborat. Moliya siyosatining tarkibiy qismi — byudjet siyosatining maqsadi davlat harajatlarini muqim ravishda pul bilan ta'minlashdir. Buning uchun byudjetning daromad qismi ta'minlanadi, byudjet daromadi va harajatlari balanslashtiriladi, byudjet taqchilligini me'yorida (YAIMga nisbatan 3%) bo'lishiga erishiladi.

Firmaning Moliya siyosati — bu firmaning o'z moliya resurslarini hosil qilish va ularni samarali ishlatishga qaratilgan chora tadbirlaridir. Bundan maqsad firmaning rentabel bo'lishi, likvidligini ta'minlash va o'z-o'zini moliyalashtirishga erishishdir. Firma Moliya siyosati uning pul fondlaridan oqilona foydalanishiga, uning qarzdorligining me'yorida bo'lishiga, pul mablaglarining o'z vaqtida aylanib turishiga, moliyaviy majburiyatlarning vaqtida bajarilishiga qaratiladi. Firma Moliya siyosatini uning egalari ishlab chiqadi, amalga oshirilishini esa moliya menejeri ta'minlaydi. Xonadon Moliya siyosati — uning daromadlari va harajatlarini balanslashtirish, ya'ni daromad manbalarini topish, daromadlarni oqilona ishlatish va farovonlikni oshirishni ko'zlaydi.



Moliya siyosatining natijasi uning asoslangan bo'lishi, real imkoniyatlardan kelib chiqishi va uni izchil amalga oshirilishiga bog'liq.

Moliya tizimidagi zaifliklar va xatarlarni baholash bo'yicha o'tkazilgan so'rovnoma natijalariga ko'ra, tashqi geosiyosiy vaziyatning yomonlashuvi eng asosiy xatar deb topildi. Shuningdek, so'rovnoma ishtirokchilari valuta kursining keskin o'zgarishi, aholi qarz yukining ortishi, inflatsiyaning oshishi va kiberhujumlarni moliya tizimiga ta'sir qiluvchi asosiy xatarlar deb hisoblaydi.

Moliyaviy barqarorlik ko'rsatkichlarining so'nggi yarim yillikdagi o'zgarishlari bo'yicha so'rovnoma natijalariga ko'ra, respondentlarning 57 foizi kreditga bo'lgan talab oshganini ta'kidlagan. Shuningdek, respondentlarning 46 foizi qisqa muddatli moliyalashtirish manbai oshganini qayd etgan. O'z navbatida, respondentlarning 37 foizi uzoq muddatli moliyalashtirishning mavjudligi hamda banklararo likvidlilik holati ko'rsatkichlari o'zgarmagan deya baholagan.

Avvalroq, Xalqaro valuta jamg'armasi missiyasi O'zbekiston iqtisodiyoti uchun ehtimoliy xatarlarni ma'lum qilgandi. Ekspertlar xulosasiga ko'ra, Ukrainadagi urushning avj olishi, tovarlar narxlarining o'zgaruvchanligi va jahon iqtisodiyotidagi stagnatsiya ehtimollari O'zbekiston iqtisodiyoti uchun tashqi xatarlarni tashkil etadi. Ichki xatarlar qatorida esa davlat xarajatlarini qisqartirish kechikishi, davlat-xususiy sheriklik bilan bog'liq majburiyatlar yuzaga kelishi va boshqalar keltirib o'tilgan.

Bank tizimini isloh qilish strategiyalari

Ta'kidlash lozimki, respublikamiz bank-moliya tizimini isloh qilish va mustahkamlash bo'yicha ko'rilayotgan chora-tadbirlar banklarning kapitallashuv darajasini oshirish, iqtisodiyotni kreditlash ko'lamini kengaytirish, ko'rsatilayotgan bank xizmatlari spektorlarini ko'paytirish, shuningdek, mamlakat iqtisodiyotini rivojlantirishda bank tizimining rolini oshirish imkonini berdi.

Bank tizimini isloh qilishning 5 yillik strategiyasi tasdiqlandi

Prezident Shavkat Mirziyoyev 12 may kuni «2020–2025 yillarga mo'ljallangan O'zbekiston Respublikasining bank tizimini isloh qilish strategiyasi to'g'risida»gi farmonga imzo chekdi.

Farmon bilan tegishli strategiya va uni amalga oshirish bo'yicha yo'l xaritasi tasdiqlandi.

Hujjat asosida kelgusi 5 yil davomida bank sohasini o'zgartirishning konseptual asoslari, tamoyillari va yo'nalishlari belgilandi.

Unga ko'ra, bank sohasida o'rta muddatli islohotlarning asosiy yo'nalishlari quyidagilar:

- sektorni qayta qurish – banklarni o'zgartirish va xususiylashtirish;
- bank nazorati bo'yicha Bazel qo'mitasi standartlarini, moliyaviy hisobotlarning xalqaro standartlarini va boshqalarni joriy etgan holda qonunchilik bazasini takomillashtirish;
- mijozlarga yo'naltirilgan xizmatlar, kreditlash mexanizmlari va biznes jarayonlarini avtomatlashtirish orqali xizmat ko'rsatish sifatini yaxshilash va kengaytirish;
- kadrlar malakasini oshirish.

2025 yilga borib quyidagi maqsadlarga erishish ko'zda tutilgan:

- bank tizimi aktivlarining jami hajmida davlat ulushi bo'lmagan banklar aktivlari hissasini joriy 15 foizdan 2025 yilga kelib 60 foizgacha oshirish;
- banklar majburiyatlarining umumiy hajmida xususi sektor oldidagi majburiyatlar hissasini joriy 28 foizdan 2025 yil yakuniga 70 foizgacha oshirish;
- 2025 yilga kelib davlat ulushi mavjud kamida uchta bank kapitaliga zarur tajriba, bilim va nufuzga ega kamida uchta strategik xorijiy investorlarni jalb qilish;
- umumiy kreditlash hajmida nobank kredit tashkilotlari ulushini joriy 0,35 foizdan 2025 yilga kelib 4 foizgacha oshirish.

Strategiya Jahon banki ekspertlari yordamida Moliya vazirligi va Markaziy bank mutaxassislari tomonidan ishlab chiqilgan. Bunda xalqaro amaliyot va yondashuvlar, jumladan, MDH va Sharqiy Yevropa tajribasi hisobga olingan.

Moliyaviy sektorni izchil isloh qilish davomida qator chora-tadbirlar amalga oshirildi va natijada ilg'or bank biznesini yuritish hamda ushbu sektorda raqobat muhitini kuchaytirish uchun zarur huquqiy shart-sharoitlar yaratildi.

Xususan, xalqaro standartlarga muvofiq keladigan va moliyaviy sohaga xorijiy investitsiyalar kiritish uchun jozibador huquqiy muhitni yaratadigan O'zbekiston Respublikasining "O'zbekiston Respublikasining Markaziy banki to'g'risida"gi, "Banklar va bank faoliyati to'g'risida"gi, "Valyutani tartibga solish to'g'risida"gi hamda "To'lovlar va to'lov tizimlari to'g'risida"gi yangilangan qonunlari qabul qilindi.

Shu bilan birga, bank sohasidagi hozirgi holat tahlili bank sektorida davlatning yuqori darajadagi aralashuvi, davlat ishtirokidagi banklarda menejment va tavakkalchiliklarni boshqarish sifatining yetarli emasligi, iqtisodiyotda moliyaviy vositachilikning past darajasi kabi bank sektorini iqtisodiy yangilanishlar va jamiyat ehtiyojlariga mos ravishda rivojlantirishga to'sqinlik qilayotgan qator tizimli muammolar mavjudligini ko'rsatmoqda.

Moliyaviy xizmatlarning ommabopligini oshirish, banklarning hududlarga kirib borishini kengaytirish va barcha aholi punktlarida bir xil turdagi xizmatlar ko'rsatilishini ta'minlash bo'yicha qo'shimcha choralar ko'rilishi lozim.

Bank tizimiga zamonaviy servis yechimlari asosida axborot texnologiyalarini, moliyaviy texnologiyalarni keng joriy etish, axborot xavfsizligini lozim darajada ta'minlash, shuningdek, moliyaviy xizmatlar ko'rsatishda inson omili ta'sirini kamaytirish bo'yicha tezkor chora-tadbirlar ko'rish talab etilmoqda.

Xulosa qilib aytganda, moliyaviy tizim va bank sohasi har qanday mamlakat iqtisodiyotining tayanch ustunlaridan biri hisoblanadi. So'nggi yillarda O'zbekistonda ushbu sohada olib borilayotgan islohotlar iqtisodiy o'sishni rag'batlantirish, investitsiya muhitini yaxshilash hamda aholining moliyaviy xizmatlarga bo'lgan ehtiyojini to'liq qondirishga xizmat qilmoqda. Bank

tizimini liberallashtirish, moliyaviy barqarorlikni ta'minlash va xalqaro standartlarga mos tizimni shakllantirish bo'yicha qo'yilgan maqsadlar bosqichma-bosqich amalga oshirilmoqda. Kelgusida bu islohotlarning izchil davom ettirilishi mamlakatning iqtisodiy mustahkamligini yanada oshiradi hamda global moliyaviy bozorlar bilan integratsiyalashuviga zamin yaratadi.

Adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zME. Birinchi jild. Toshkent, 2000-yil.
2. Wikipedia.
3. Lex.uz
4. O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki rasmiy veb-sayti – www.cbu.uz
5. Strategy.uz
6. Kun.uz
7. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmonlari va qarorlari (moliyaviy va bank tizimiga oid so'nggi hujjatlar).
8. Xodiev B., Yusupov M. Bank ishi. – Toshkent: "IQTISOD-MOLIYA", 2020.

